



“AXTARE TOBON” TAZKIRASI: FORS ADABIYOTIDA AYOL
SHOIRALARNING O‘RNI VA ABULQOSIM MUHTARAM
SHIRVONIYNING BADIY MEROSI

Tuychiyeva Oydin Sayfullayevna
*Oriental universiteti O‘zbek va sharq tillari
kafedrasi dotsenti. oydin_s@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr forsiyzabon adabiyoti tarixida alohida o‘rin egallagan, faqat ayol shoirlarga bag‘ishlangan “Axtare Tobon” tazkirasi o‘rganiladi. Asar muallifi — Abulqosim Muhtaram Shirvoni (taxallusi Abulqosim, ismi Akbar shayx Abulfazl Muhammad Abbas), o‘z zamonasining yirik adiblaridan bo‘lib, Hindistonda yashab ijod qilgan. Tazkira hijriy 1298 (milodiy 1881) yilda yozilgan bo‘lib, 82 nafar ayol shoirlarning tarjimai holi va she‘riy namunalari o‘z ichiga oladi, unda har bir shoirlarning ismi, u haqidagi ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Abulqosim Muhtaram Shirvoni, Axtare tobon, tazkira, janrlar.

Abstract: This article explores Axtare Tobon, a tazkira (biographical anthology) that holds a special place in the history of 19th-century Persian-language literature and is uniquely dedicated to female poets. The author of the work, Abulqosim Muhtaram Shirvoni (pen name: Abulqosim, full name: Akbar Shaykh Abulfazl Muhammad Abbas), was one of the prominent literary figures of his time and lived and worked in India. The tazkira was written in 1298 AH (1881 CE) and includes biographical information and poetic samples from 82 female poets. Each poet's name is recorded along with relevant biographical details.

Key words: Abulqosim Muhtaram Shirvoni, Axtare tobon, tazkira, janr.

Tazkira janr sifatida juda qadim davrlardan shakllangan bo‘lib, sharq xalqlari adabiyotida juda keng tarqalgan. Taniqli adib Xurshid Davron ta‘biri bilan ifodalaganda tazkira “milliy va o‘zaro yaqin adabiyotlar tarixini yaratishda, muayyan davr adabiy muhitini o‘rganishda, alohida adabiy siymolar va asarlarni tadqiq etishda adabiyotshunoslikning benazir janri sifatida xizmat qiladi”. Istiloh sifatida “tazkira” - arabcha «zikr» so‘zidan bo‘lib, “esdalik daftari”, “esga olmoq”, “yodda tutmoq”, “yodgorlik” degan ma‘nolarni anglatadi. Safaviylar davri (1502-1736) dan oldin barcha forsiy adabiy manbalarda, tazkira so‘zi, “yodgorlik”, “esga olish”, “yodda saqlash” ma‘nolarida qo‘llanilgan. Sekin-asta tazkira so‘zi “Shoirlar tazkirasi” (shoirlar yodgorligi) ma‘nosida qo‘llanilib, unda shoirlarning kelib chiqishi haqidagi ma‘lumotlar, ijodiy faoliyatlaridan namunalar keltiriladi va bugungi kunda ham shu ma‘noda saqlanib qolgan. Tazkira shoirlarning tarjimai holi va asarlari haqida ma‘lumot beruvchi adabiy manba hisoblanadi, ba‘zida tazkiranavislar asarda keltirilgan shoirlar va ularning asarlarini tanqid ham qilishadi.



Ba'zi ayol ijodkorlar nomlari umumiy tazkiralar ichida kelsa, ba'zilariniki ayollargagina bag'ishlangan maxsus tazkiralardan o'rin olgan. Biz bu tazkiralari orqali ayol ijodkorlarning qismati, ularning ijodi haqida muxtasar bo'lsada ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Eng qadimiy tazkiralardan biri Muhammad Avfiyning "Lubob ul-albob" asarida erkaklar bilan bir qatorda ikki nafar shoira Robiya binti-Ka'b va Qoshg'ariy qizi nomlari zikr etiladi. Unda forsiyguv shoira Robiyaning g'azaliyotdagi mahorati haqida so'z boradi. Robiya g'azalnavis ayol bo'lgan va hayotda o'z xizmatkorini yaxshi ko'rib qolib unga jonini fido qilganligi aytiladi. Robiya o'ziga to'q oilaning farzandi bo'lgan. Otasi Balx va Qandahor hokimi bo'lganligi sababli, o'qish va yozishda unga teng keladigani bo'lmagan. She'riyatga o'zgacha mehr qo'ygan Robiya fors va dariy tillarida she'rlar yozgan. Robiyaning she'rlaridan akasi singlisini xizmatkorga mehr berganligini sezib qolib qatl etiradi.

Davlatshoh Samarqandiyning 892 yilda yozilgan "Tazkirat ush-shuaro" asarida esa yuzlab shoirlar orasida Dilorom Changi, Pari, Mahastiy, Jahon Xotunlar she'r va adabiyot ahli sifatida tilga olingan.

Doktor Ruhangiz Karochi Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida ayollar haqida o'rganar ekan, asarda 459 shoir orasida uch nafar shoira haqida ham qisqa ma'lumot berilganligini aniqlaydi. Bulardan Mehriy Hirotiy haqida Mavlono Sulaymoniyning zikri orasida aslida bu abiyot Mavlono Hakim tabibning xotini Mehriningdur, ikkinchisi esa, Navoiy Shayhzoda Ansoriyning zikrida uning validasi Bediliy, deb keltiradi va Biche (Bibicha) Munajjima haqida esa, Xoja Alouddinning zikri orasida uning singlisi ekanligini ta'kidlaydi.

Bediliy Alisher Navoiy zamondoshlaridan bo'lib, uning ismi ilk bor Navoiy tazkirasida uchraydi, ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, shoira sifatida emas, Shayh Abdulloh Devonaning o'g'li Shayhzoda Ansoriy ismli shoirning onasi sifatida tavsiflanadi. "Andoq zohir bo'lurkim, validasi ham xushtab'durur va Bediliy taxallus qilur. Go'yo bu matla' aningdurkim:

Ravam ba bog'u zi Nargis du dida vom kunam

Ki to nazaram on sarvi xushixorot kunam".

Mehriy haqida esa, Hakim Tabibiyning xotini va badihago'y ayol sifatida ta'rif bergan. Mehriy Hirotiy va Bediliy zamonasining mashhur shoirlaridan sanalgan va ushbu shoirlarga ta'rifni Alisher Navoiy ilk bor tarix zarvaraqlariga tushurib qoldirgan. Ammo davr o'tishi va dunyoqarashlar o'zgarganidan so'ng "Majolis un-nafois" tarjimonlari bu masalaga boshqacharoq yondashib, tazkiraning bu nuqsonini iloji boricha isloh qilishga harakat qildilar va tarjimalarida shoira ayollar haqidagi ma'lumotlarni qo'shdilar. "Majolis un-nafois"ning fors tilidagi ilk tarjimasini Faxriy Hiraviyning "Latoyifnoma" tazkirasida adib to'qqizinchi majlisni qo'shib, ushbu majlisga Ofoq Begim Jaloyir haqidagi zikrni ham kiritgan. Muhammad bin Muborak Qazvinii ham 929 yilda tugatgan tarjimasida 4 shoira Mahastiy, Oyisha Mehriya, Bicha Munajjima va Ro'zbehlarni kiritgan.



Abul Qosim Muhtaram Shirvoniyning "اخترتابان" ("Axtare tobon" hijriy -1298/ milodiy -1881) tazkirasini faqatgina ayollarga atalgan bo'lib, unda 82 nafar so'z ustalari bo'lgan shoirlar zikri alifbo tartibida berilgan. Tazkira basmaladan so'ng Orzuviy Samarqandiy tavsifi bilan boshlanadi va ushbu ayol haqida qaysi tazkiralarda to'xtalib o'tilganligi birma-bir qayd etiladi va har bir sanab o'tilgan asarlar raqamlar bilan belgilab qo'yilgan¹¹³. Muallif asarni yaratishda boshqa manbalardan foydalanganligini kirish qismida aytib o'tib, "Ro'zi ravshan", "So'bhi gulshan", "Nigoristoni suxan" va "Sham'i anjuman" asarlarida ismlari keltirilgan ayollarga ta'rif beradi. Shuningdek, ushbu to'rt tazkiradagi she'riy san'atlarni o'zining asarini o'rtasida Shoh Jahon ta'rifidan so'ng birma-bir keltirib o'tadi¹¹⁴. Asarning yozilish tarixi va sabablarini Ahmad Gulchin Maoniy o'zining "Torixi tazkirahoyi forsi" asarida quyidagicha beradi: "Kitob muallifning akasi muhtaram Abul Hasan uchun jamlanib, Bxapul sohibi Shoh Jahon Begimga bag'ishlangan va Bxapul nashriyoti tomonidan 1299 hijriyda 63 betdan iborat holda e'lon qilingan. 24x17 o'lchamda, nasta'liq xatida bitilgan. Ushbu tazkirada Avrangzeb Olamgir Podshohning qizi Zebuniso Begim ismi bilan mashhur bo'lgan Maxfiy Ro'shtiyning she'rlaridan parchalar keltirilgan"¹¹⁵. Muallif o'z izohlarida ko'pgina tazkiralarni sanab o'tgan, masalan: "Xaritayi javohir", "Javohiri zavohir", "Nashtari g'am" va boshqalar. Abulqosim muallifning taxallusi bo'lib, asli ismi Akbar shayx Abulfozil Muhammad Abbos Shirvoniylardir, uning ajdodlari Madinadan kelishgan, ko'pgina mashhur shoir va olimlarning qarindoshi, Shohjahonning xizmatdoshi bo'lgan. Hijriy 1276 yilda dunyoga kelgan. Bog'dod, Hamadon, Shervon, Lakhnavu, Bandaroslarda yashab ijod qilgan. "Zarin parand", "Oyini bihin", "Chashmai nush", "Torixi nafis", "Zikri qaysarnamoh", "Dilafro'z", "Ravoni afzo" asarlarining muallifidir¹¹⁶.

"اخترتابان" ("Axtare tobon") kitobida muallif tomonidan ayollarga bag'ishlangan 421 bayt berilgan. Tazkira 48 ruboiy, 12 g'azal, 7 matla', 3 she'r, 1 qit'a, 10 javobiya (mutoyiba), 1 hasbi hol, 4 fard, 1 nazm va baytlar bilan bezatilgan. "ا" harfiga 4, "ب" harfiga 6, "پ" harfiga 1, "ت" harfiga 3, "ج" harfiga 4, "ح" harfiga 6, "خ" harfiga 2, "د" harfiga 2, "ر" harfiga 1, "ز" harfiga 6, "س" harfiga 3, "ش" harfiga 5, "ص" harfiga 1, "ض" harfiga 1, "ع" harfiga 4, "ف" harfiga 2, "ق" harfiga 1, "ك" harfiga 3, "گ" harfiga 4, "م" harfiga 10, "ن" harfiga 9, "و" harfiga 1, "ه" harfiga 2 va "ی" harfiga 1 nafar shoira ijodi sharhi kelgan, asar Robiya Qo'zdoriy va Masturayi Kurdistoniylarga bag'ishlangan xotima bilan yakunlanadi¹¹⁷.

¹¹³Қаранг: ۶-۳. ص. اخترتابان. ابوالقاسم محتشم شیروانی بهویالی

<http://www.KetabFarsi.com> электрон нусха

¹¹⁴Уша манба: Б.23-33.

¹¹⁵Қаранг: ۲۲-۱۹. ش.ص. ۱۳۵۰. تهران. احمد گلچين معانی، تاريخ تذکره های فارسی، ج ۱.

¹¹⁶www.KetabFarsi.com // ابوالقاسم محتشم شیروانی بهویالی. اخترتابان. ص. ۱۹. электрон нусха

¹¹⁶<https://www.cgie.org.ir/fa/news/26033>

¹¹⁷Қаранг: ۴-۳. ص. اخترتابان. ابوالقاسم محتشم شیروانی بهویالی

<http://www.KetabFarsi.com> электрон нусха.



“Axtare tobon” —faqat ayol shoiralarga bag‘ishlab yozilgan tazkira bo‘lib, o‘z davri uchun yuksak madaniy va adabiy qadriyatlarni ifodalaydi. Ushbu asar nafaqat badiiy mahoratni, balki muallifning keng manbashunoslik bilimini, izchil yondashuvini namoyon etadi. Ayol shoiralarning she‘riy salohiyati va jamiyatsdagi o‘rni haqida keng qamrovli tasavvur beradi. “Axtare Tobon” bugungi tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdul Qosim Muxtasham Shervoniy Baxrpuliy. Axtartobon. B.8. <http://dli.iiit.ac.in>
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. www.ziyouz.com.kutubxonasi. B.13. B.75 B.75. B.90
3. Ahmad Gulchin Ma‘oniy. Ta’rixii tazkiraxoyi forsi. 1 tom.Tehron.-1348.B. 640-644
4. <http://www.perslit.com/rabeh.parvin.htm>
5. Oyidin, T. (2023). Russian native-maga rahmani: The first female writer of afghanistan and her tadhkirats. Бюллетень науки и практики, 9(4), 621-626.
6. Tuychiyeva, O. (2025). Features of the use of the aorist in the Persian Language. Bulletin of Science and Practice, 11(1), 487-492. (In Russian). <https://doi.org/10.33619/2414-2948/110/57>